

Sardor Rahimhon

"Nima uchun"

Visit "[Nima uchun](#)" on MotoLyrics.com

Jonim sadqa deya sendek mohitob uchun,
Poylaringga tiz cho'kaymi tavof uchun?
Valayki sen bir boqishni ep ko'rmasan,
Bir bechora mendek xokisor uchun.

N a q a r o t

Nima uchun, nima uchun, nima uchun?
Azob berib shodlanasan nima uchun?
Nima uchun, nima uchun, nima uchun?
Azob berib kuydirasan nima uchun?

Ohlar ursam, ohlarimdan tutun chiqar,
Yo dunyoga kelganmisan qiynoq uchun?
Sitamlaring bir jonimdan ming bor o'tdi,
Onam meni tug'ibdimi azob uchun?

N a q a r o t

Bunchalar ham sitamkoru zolimsan-a
Vaslingga zor bitta bag'ri kabob uchun!
Yo oshiqlar his sabrini sinarmisan,
Ular soching tolasidan serob uchun?

Hech bo'lmasa senga shaydo Sardoringga
Har ko'rganda bir kulib qo'y savob uchun!

Visit [Sardor Rahimhon](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.